

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.B.05.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOVA BASHORATXON BEGALIYEVNA

TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA BIOLOGIYA O‘QITISH
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH (7-SINFLAR MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nizomova Bashoratxon Begaliyevna

Tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o‘qitish jarayonini takomillashtirish
(7-sinflar misolida).....3

Низамова Башоратхон Бегалиевна

“Совершенствование процесса обучения биологии на основе интеграции
естественных наук (на примере 7-классов).....21

Nizamova Bashoratkhan Begaliyevna

“Improving the process of teaching biology based on the integration of natural
sciences (using the example of 7th graders).....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.B.05.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOVA BASHORATXON BEGALIYEVNA

TABIY FANLAR INTEGRATSIYA ASOSIDA BIOLOGIYA O‘QITISH
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH (7-SINFLAR MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6481 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Do‘monov Baxromjon Muxtorovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shermatov Malikjon Raxmatjonovich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Samatov Dilshodbek Toxirjonovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2021.B.05.06 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2025-yil 27-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 1501000, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. FarDU. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№516 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-may kuni tarqatildi.
(2024-yil 3-maydagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).



I.I. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

B.M. Sheraliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

A.K. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning jahon talablari asosida bilim olishlarida tabiiy fanlarning integratsion mazmunini fan rivojlanishi darajasini hisobga olgan holda yangilash, tabiiy fanlarga doir kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib borilmoqda. Bu ishlarni samaradorligi umumta'lim maktab o'quvchilari uchun tabiiy fanlarining o'zaro aloqadorligiga asoslangan integrativ mazmuni va uni o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan modelini ishlab chiqish, amalda bo'lgan didaktik materiallar va tavsiyalarni takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Dunyo miqyosida 2030-yilgacha qabul qilingan barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasida "Barqaror taraqqiyotga erishishda tabiiy fanlarning boshqa sohalar bilan chambarchas bog'liq amaliy, qulay va barqaror yechimga egaligi" ta'kidlangan ¹. Ta'limni globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tajribasida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, ularni STEAM yondashuvi asosida integrativ o'qitishni takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'quvchilarga biologiya, fanini o'qitishda integrativ yondashish, fan mazmunini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida o'zlashtirish jarayonida ularning fanga doir kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ilmiy va uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim bo'g'inini zamon talablari asosida yangilash, umumta'lim maktab o'quvchilarining tabiiy fanlarga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning me'yoriy-uslubiy negizlarini yaratish, ularning tabiiy ilmiy savodxonligini oshirishda integrativ yondashuv talab etiladi. Unga ko'ra biologiya o'quv fani bo'yicha amalda qo'llanilayotgan fan dasturi va unga muvofiq darslik hamda o'quv qo'llanmalarining integrativ mazmuni va uni o'qitish metodikasini ilg'or xorijiy mamlakatlarning ilmiy-metodik va amaliy tajribalari asosida takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yaratdi. Bu esa o'z-o'zidan mamlakatimizda biologiya o'quv fanidan mavjud Davlat ta'lim standartlari, Milliy dastur, fan dasturlari va unga mos darslik, qo'llanmalarining integrativ mazmunini qayta tahlil qilish va ular asosida integrativ o'qitish g'oyalarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi², 2019-yil 29-apreldagi PF 5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari³, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish

¹Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁴ hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda fanlararo aloqadorlikni va integratsion o'qitish jarayonlarini tashkil etish masalasi bo'yicha J.Tolipova, R.X.Jurayev va A.Zunnunov, U.Musayev, R.A.Mavlonova va N.X. Rahmonqulova, B.S.Abdullayeva, E.Turdiqulov va R.X. Djurayev, N.Abdullayeva, N.Ahmedova, X.A.Yulbarsova o'quvchilarda tabiiy – ilmiy bilimlarni shakllantirish va ekologik bilimlarni egallash, ekologik tarbiya bo'yicha E.Turdiqulov, G.A.Kamalova tabiatshunoslik o'qitish metodikasini takomillashtirish muammolari M.N. Irisboyeva, X.B.Norbo'tayev va STEAM ta'limining dars jarayonidagi ahamiyati haqida M.X.Tashibekova, Sh.R.Turdiyev, I.Yu.Aripov⁵ boshqa bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O. S. Anisimov, E. R. Shipulina, A.V.Xutorskiy, A. M. Novikovlarning tadqiqotlarida o'quvchilarning ta'lim va kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish masalalari borasida tadqiqot olib borishganini ko'rishimiz mumkin. A.Savenkov, V.V. Davidov maktab o'quvchilarining o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni, T.V.Volosoves, V.A.Markova, S.A.Averin⁶ esa STEAM ta'limi mohiyatini ochib berganlar.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ 4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

⁵ Tolipova J.O. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda fanlar integratsiyasidan foydalanish // Fanlarni integratsiyalab o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O'zPFITI, 2007. – B. 64-66., Jurayev R.X., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash. – T.: Sharq, 2005. –71 b., Musayev U.K. Integratsiya – ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsipi // №6. Xalq ta'limi. –Toshkent, 2002. – 100 b., Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi". (O'quv qo'llanma) – Toshkent: "ILM ZIYO", 2009. – 192 b., Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologiyasining didaktik asoslari. Diss.ped.fan.dok. Toshkent, 2006. – 263 b. Turdiqulov E.O., Djurayev R.X. Integratsiyalashgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Sano-standart", 2009. – 176 b., Abdullayeva N. Maktabgacha ta'limga variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. Nom diss. –T.: 2020. – 164 b., Ahmedova N. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent 2020. – 161 b., Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2019. – 45 b. Турдикулов Э.А. Экологическое образование и воспитание учащихся. -Т.: Ўқитувчи, 1991. –192 с., Kamalova G. A. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari // Umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. –Toshkent, 2023. – B. 100-103., Irisbayeva M.N. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash. Ped.fan. bo'yicha fal. dok diss. – Samarqand 2020. – 131 b., Norbo'tayev X.B. Biologiyani tabiiy fanlararo sinxron-asinxron o'qitishda o'quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirish shakl va metodlarini takomillashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: "Innovatsiya -Ziyo" 2020. – 144 b., Tashibekova M.X. STEAM darslari. O'qituvchi elektron kitobi. // Elektron uslubiy qo'llanma. – Namangan: NamDU, 2022 (elektron nashr)., Turdiyev Sh.R. STEAM fanlari ta'limi va integratsiyasini yuzaga kelishi modeli // Academic Research in Educational Sciences. V. 3. Issue 4. 2022. – P. 1143-1148., Aripov I.Yu. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosda texnologiya darslarida o'quvchilarga ta'lim berishda fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni, qiziqishlarini rivojlantirish // Scientific progress. V.2.ISSUE6.2021. – P 1575-1548.

⁶ Анисимов О.С. Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. - М.: Угрешская типография, 2012. – 285 с., Шипулина Е.Р. Формирование профессиональных компетенций будущих учителей на основе

Xorijiy olimlardan G.Yakman, K. Peppler, K.Wohlwend, M. H. Land, J.Hogan, B Down, B. H. Kim, J Kim ⁷ va boshqalarning tadqiqotlarida STEAM ta'limi fenomenining mohiyati ochib berilgan, biroq 7-sinflarda STEAM ta'lim texnologiyasi asosida fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasining ilmiy talqin etilmaganligi, tabiiy fanlar biologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tabiiy ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning metodik tizimi va tarkibiy qismlari aniqlashtirilmaganligi hamda kreativ faoliyat tajribasini shakllantirishning alohida tadqiqot muammosi sifatida tahlil etilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Andijon davlat universitetining pedagogika fanlari bo'yicha bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli va ustuvor 2021-2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan uzviy bog'langan holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish boyicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumta'lim maktablarida biologiya fanini turdosh tabiiy fanlar bilan integratsiyasi asosida fanni o'qitish mazmuni, mohiyati va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya fanini o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish hamda didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

zamonaviy integrativ yondashuvlar vositasida 7-sinfda biologiya fanini o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya fanini o'qitish jarayonini metodik jihatdan boyitish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya o'quv fanidan o'quv jarayoni belgilanib, unda Andijon, Farg'ona va Toshkent

курса «STEM-технологии в образовании» Магистерская диссертация. Екатеринбург, 2020. – 107 с., Хуторский, А.В. Эвристический тип образования. // Результаты научно-практического исследования № 7. Педагогика. 1999. – С. 34–36., Новиков А.М. Интеграция базового процесса образования. // № 3. Педагогика.– 1997. – С. 19-22., Савенков А.И. Методика исследовательского обучения младших школьников. – Самара: Издательство «Учебная литература», 2004. – 80 с., Давидов В.В. Проблемы развивающего обучения : опыт теоретического и экспериментального педагогического исследования. – Москва: Педагогика, 1986. – 240 с., Т.В.Волосовец, В.А.Маркова, С.А.Аверин. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество: учебная программа / - М.: Бинوم. Лаборатория знаний, 2019. - 112 с.

⁷Yakman J. STEAM – An Educational Framework to Relate Things To Each Other And Reality. STEAM Education ©/TM© 2019. <https://steamedu.com/k12digest>, Yakman G. Exploring the Exemplary STEAM Education in the U.S. asa Practical Educational Framework for Korea. J Korea Assoc. Sci. Edu, Vol. 32, No. 6, pp. 1072-1086. <https://koreascience.kr/article/JAKO201213459004832.pdf>, Peppler, K., & Wohlwend, K. (2018). Theorizing the nexus of STEAM practice. Arts Education Policy Review, 119(2), 88–99. <https://doi.org/10.1080/10632913.2017.1316331>., Land, M. H. (2013). Full STEAM ahead: The benefits of integrating the arts into STEM. Procedia Computer Science, 20, 547–552. <https://doi.org/10.1016/j.procs.2013.09.317>., Hogan, J., & Down, B. (2015). A STEAM School using the Big Picture Education (BPE) design for learning and school – what an innovative STEAM Education might look like. International Journal of Innovation in Science and Mathematics Education, 23(3), 47–60., Kim, B. H., & Kim, J. (2016). Development and validation of evaluation indicators for teaching competency in STEAM education in Korea. Eurasia Journal of Mathematics, Science & Technology Education, 12(7), 1909–1924. <https://doi.org/10.12973/eurasia.2016.1537a>.

viloyatlarining umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan 197 nafar 7-sinflar o‘quvchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti: tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o‘qitish jarayonini takomillashtirishning metod, shakl va vositalari.

Tadqiqotning usullari:

Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma’lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta’lim maktablarida biologiya fanini turdosh tabiiy fanlar bilan integratsiyasi asosida mavzularni kolloborativ (hamkorlik) o‘qitilishi – darsning sifat jihatidan yangi turi (dinamik, informatsion) ni interpretatsiya qilish, o‘qitish metodlarini differensiyasialash (farqlash) hamda didaktik resurslarning difersifikatsiya (kengaytirish) qilinishi asosida boytilgan;

tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya fanini o‘qitishning metodik tizimi hamda didaktik imkoniyatlari muammoli ta’limga asoslangan ilmiy-kreativ loyihalarni va xalqaro baholash tadqiqotlarida keltirilgan tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning kontseptual jihatlarini o‘quv-metodik jarayonning tayyorlov, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash kabi bosqichlari bilan uyg‘unligini ta’minlash mantig‘iga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida 7-sinf biologiya fanini o‘qitishning metodik ta’minoti integrativ ta’lim texnologiyasi asosida shakllantirilgan dars mashg‘uloti bosqichlarini o‘rganish jarayonining intevsivlik darajasini oshirish, topshiriqli-amaliy yo‘naltirilgan loyihalash faoliyati bilan samaradorligini muntazam baholab borish asosida aniqlashtirilgan;

tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya fanini o‘qitish jarayoni metodik jihatdan o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va motivatsional preferensiyalariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalarni kollaborativ, situativ, eksperimental dars shakllari bilan rekursiv mexanizm sifatida talqin qilish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari biologiya dars mashg‘ulotlarida integrativ mazmunga ega o‘quv materiallarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalari ishlab chiqilgani bilan izohlanadi. Mazkur dars mashg‘ulotlarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, dars jarayonida beriladigan ma’lumotlarning hajmi va mazmuni qayta ko‘rib chiqilib, bu jarayonda “Biologiya va turdosh tabiiy fanlar integratsiyasi” nomli elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan (guvohnoma № DGU 27510) dasturidan foydalanilgan.

Biologiya fanini integrativ materiallar asosida o‘qitish bo‘yicha 7-sinf o‘qituvchilari uchun o‘quv qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ushbu qo‘llanmalar, xususan, innovatsion ta’lim texnologiyalari yordamida biologiya dars mashg‘ulotlarini o‘rgatishda foydalanilmoqda. Bu esa

o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tizimli ravishda oshirishga, ularning tabiiy fanlarga qiziqishini kuchaytirishga yordam bermoqda.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va metodikalar, foydalanilgan nazariy va amaliy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistika metodlari yordamida asoslanganligi, metodika, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirish metodikasi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi; umumta'lim maktablari o'quvchilarning biologiya va turdosh tabiiy fanlar tushunchalarini o'zaro integratsiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari ishlab chiqilib, o'quvchilarning fanlararo kompetentligini rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi biologiya fanini o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishning mazmuni, texnologiyalari va pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilganligi bilan ifodalanadi. Tadqiqot ishi doirasida shakllantirilgan texnologiyalar o'quv jarayonini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishiga imkon bersa, pedagogik shart-sharoitlarga oid uslubiy tavsiyalar ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya samaradorligini oshirishga hamda o'quvchilar o'rtasida hamkorlikda o'rganishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan didaktik materiallar va yondashuvlar boshqa turdosh tabiiy fanlar uchun metodik asos sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

mavzularni integratsiya qilish, intensiv mashg'ulotlar hamda o'qitish jarayonini differentsiallashtirish kabi asosiy xususiyatlarini o'quv faoliyatini tahlil qilish, maqsad va didaktik resurslarni mazmunli tavsifini qat'iy belgilash orqali aniqlashtirilgan umumta'lim maktablarida biologiya fanini turdosh tabiiy fanlar bilan integratsiyasi asosida fanni o'qitish mazmuni, mohiyati va pedagogik shart-sharoitlariga oid fikr mulohazalar "Biologiya va turdosh tabiiy fanlar integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug'i, 314-66-son nashr guvohnomasi). Natijada biologiya fanidan o'quv mashg'ulotlarini mavzular-aro va fanlararo integratsiyasiga asosan tashkil etishga oid uslubiy ma'lumotlarning tizimlilikiga erishilgan;

muammoli ta'limga asoslangan ilmiy-kreativ loyihalar, xalqaro baholash tadqiqotlarida keltirilgan tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning kontseptual mazmunini o'quv-metodik jarayonning tayyorlov, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash kabi bosqichlari bilan uyg'unligini ta'minlash mantig'iga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya

fanini o'qitishning metodik tizimi hamda didaktik imkoniyatlariga oid takliflar Milliy o'quv dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 28-avgustdagi 01/11-01/1-733-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni integrativ asosida rivojlantirish orqali biologiya o'quv faniga doir kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatini bergan;

integrativ ta'lim texnologiyasi asosida shakllantirilgan dars mashg'uloti bosqichlari va ketma-ketligi o'rganish jarayonini intevsivlik darajasini oshirish, topshiriqli-amaliy yo'naltirilgan loyihalash faoliyatining produktivlik jihati samaradorligini muntazam baholab borish asosida takomillashtirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida 7-sinfda biologiya fanini o'qitishning metodik ta'minotiga oid taklif va tavsiyalar "Biologiya va turdosh tabiiy fanlar integratsiyasi" dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi № DGU 27510). Natijada o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga, ularni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning uslubiy ta'minoti takomillashtirishga erishilgan;

o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va motivatsional preferensiyalariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalar bilan kollaborativ, situativ, eksperimental dars shakllarini rekursiv mexanizm sifatida talqin qilish orqali takomillashtirilgan tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya fanini o'qitish jarayonini metodik ta'minoti doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda VM-997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ko'rsatilgan vazifalarni hal etishda biologiya fanidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash uchun ochiq va yopiq javobli hamda PISA testlarini tuzishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 28-avgustdagi 01/11-01/1-733-son ma'lumotnomasi). Natijada tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishning didaktik imkoniyati kengaytirilgan hamda o'quvchilarda nazariy va amaliy kompetentlikni rag'batlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 9 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola, 1 ta o'quv qo'llanma chop etilgan, 3 ta xalqaro konferensiyalarda, 6 ta respublikada bo'lib o'tgan konferensiyalarda muhokamadan o'tgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning respublika fan-texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi bayon qilinib, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o‘qitish jarayonini takomillashtirishning nazariy–metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida fanlararo integratsiya va biologiya o‘qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan nazariy-metodologik asoslar bayon qilingan.

Ushbu bobda tabiiy ilmiy savodxonlikni baholash, tabiiy turdosh fanlar integratsiyasi, integrativ metodika va metodologiya sohasida xorijiy mamlakatlar va MDH davlatlarida pedagogik o‘lchovlarning rivojlanishining tarixiy jihatlari (PISA) batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, psixologiya va pedagogikada bilishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish muammosi, biologiya o‘qitish metodikasida ta’limning hayot bilan bog‘liqligi tamoyilini bilishga bo‘lgan qiziqishni oshirishdagi muammolar, ta’limning hayot bilan bog‘liqligi tamoyili asosida biologiya o‘quv predmetiga qiziqishni shakllantirish sharoitlari va STEAM yondashuv tarixi hamda istiqbollari keng yoritilgan.



1-rasm. Gorizantal va vertikal integrativ yondashuv

Tabiiy fanlarni mazmunini integratsiyalash quyidagi muhim ijtimoiy va didaktik omillar vositasida ta’minlanadi:

- jamiyatning ta’lim mazmuniga bo‘lgan ijtimoiy talabini hisobga olish;
- fan, ta’lim, texnika, g‘oya, ishlab chiqarishdagi integratsion jarayonlarni aks ettirishi;
- tabiiy fanlarni, jumladan biologiya fanini o‘qitishning ilg‘or g‘oyalarini amalga oshirishi;
- didaktik jihatdan muhim bo‘lgan fanlararo bilish obyektlarini o‘rganishi;
- o‘quvchilarning o‘quv faoliyatni yagona yaxlit tizimini aks ettirishi;
- hozirgi davrning global fanlararo muammolarini aks ettirishi;
- didaktikaning ilg‘or qonuniyatlari va tamoyillarini amalga oshirishi.

Ta’lim tizimida gorizantal va vertikal integrativ yondashuvdan (biologiya fanini tabiiy fanlar bilan) foydalanish tabiiy fanlardan, jumladan biologiya o‘quv fanidan bilimlarini oshirishga xizmat qiladi (1-rasmga qarang).

Biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishda fanlararo integratsiya va STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda mustaqil o'rganish, ijodiy faoliyat va olingan nazariy bilimlarni real hayotda qo'llash qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Ta'limda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlanadi. Ushbu bobning **“Tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari”** nomli 2.1-§. da tabiiy fanlar integratsiyasi orqali biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari hamda ushbu metodik tizimning dolzarbligi va amaliyotda qo'llanishi haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Integratsiya nazariyasi yaxlitlik, bir butunlik va sistemalilik nazariyalarning rivojlanishi bilan bog'liq holda shakllantirilgan bo'lib, sistemalilik tamoyili tadqiqot obyektlariga yaxlit yondashuvni ta'minlaydi. Bu jarayon avvalo yaxlit tushunishdan boshlanadi, keyin tizim va tashkil etuvchi tushunchalar rivojlantiriladi va oydinlashtiriladi. Tabiat qonunlarini o'rganuvchi fanlarning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro yaqinlashuvi va birlashib borishi obyektiv jarayon hisoblanadi. Inson tabiatning tarkibiy qismi, fanlarning asosiy o'rganish obyekti hisoblanadi.

Inson nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot hisoblanganligi sababli unda moddiy dunyoning mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Narsa-hodisalar haqida maktablarda ayrim o'quv fanlari tarkibida alohida-alohida, o'z o'quv fani nuqtai nazaridan kelib chiqib chuqur bilim berishga harakat qilinadi. Natijada obyekt turli o'quv fanlari o'rtasida bo'linib, u haqida yaxlit, bir butun bilimlar tizimi tarkib topmaydi. Shuning uchun integratsiyalashgan holda o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, integratsiyalashgan ta'lim maktablarda fan asoslaridan beriladigan bilimlar mazmuniga yangicha yondashuvni nazarda tutadi va uning asosiy maqsadi o'quv materiallarini mantiqan tugal mazmundagi muammolar majmuasi sifatida o'rganish, o'quvchilar ongida olam va jamiyatning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirish, tabiat va unda insonning o'rni haqida ilmiy tushuncha va bilimlarni tarkib toptirishdan iborat.

“Tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirish metodik tizimi va modeli” nomli 2.2-§. da keltirilgan metodik tizim modelida maqsad, mazmun, shakllar, metodlar, vositalar, baholash mezonlari va kutiladigan natijalar uch bosqichda, ya'ni tayyorlov, rivojlantiruvchi va yakuniy bosqichlarda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi (2-rasm). Yakuniy natija sifatida biologiya darslarida integrativ yondashuv samaradorligini oshirish va o'quvchilarning mustaqil ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish maqsad qilingan.



2-rasm. Tabiiy fanlarni o'zaro integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishning metodik tizimi modeli.

Modeldan ko‘rinib turibdiki, maqsad, mazmun, shakllar, metodlar, vositalar, baholash mezonlari va kutiladigan natijalar uch bosqichda, ya’ni tayyorlov, rivojlantiruvchi va yakuniy bosqichlarda amalga oshiriladi.

“Tabiiy fanlarni o‘zaro integratsiyasi asosida biologiya o‘qitishni takomillashtirish metodikasi” deb nomlangan 2.3-§ da bugungi axborot asrida o‘quvchiga xos bo‘lgan tadqiqotchilik xatti-harakatlarini, o‘quv faoliyatlarini iloji boricha bilimga bo‘lgan intilishlariga yo‘naltirish 7-sinf o‘qituvchilari zimmasidagi ulkan mas’uliyatlardan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish o‘quvchidan o‘ziga xos tadqiqotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun ta’lim jarayonida tadqiqotchilik faoliyatining metod va vositalarini shakllantirish bo‘yicha maqsadga muvofiq ish olib borish, ijodiy izlanishga intilishni rag‘batlantirish, uning natijalarini baholash muhim ahamiyatga ega.

7-sinf o‘quvchilarida izlanishli-ijodiy faoliyatini tajribasini egallashlarida quyidagi fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi: berilgan matndagi asosiy muammoni ajrata olish, muhim tushunchalarni aniqlash va bir-biridan farqlay olish, o‘z shaxsiy farazlarni ilgari surish, kuzatish, tadqiqotchilik qobiliyatlari va boshqalar shular jumlasidandir.

7-sinf biologiya o‘quv fani darslarida STEAM ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarining atrofdagi dunyoni tushunishga, yangi bilim va faoliyat usullarini kashf etishga qaratilgan ijodiy, kreativ faoliyatni yo‘lga qo‘yishga imkon beradi.

Integrativ STEAM ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar nafaqat tabiiy fanlarga oid muammolarni, balki texnologiya, kimyo, fizika, geografiya kabi sohalarga oid muammolarni ham ilmiy asosda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik eksperiment va uning natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental ishlarni tashkil etish va o‘tkazish, ishlarning statistik tahlili va yakuniy natijalarning samaradorligi aniqlashga doir ishlar mazmuni ifodalangan. Pedagogik tajriba sinov ishlari tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha uch bosqichda (aniqlovchi — 2020-2021 o‘quv yili, shakllantiruvchi — 2021-2022 o‘quv yili, yakunlovchi — 2022-2023 o‘quv yili) olib borildi.

1. Aniqlovchi tajriba bosqichida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tabiiy fanlarni, jumladan biologiyani o‘qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanishga doir ilmiy-pedagogik asarlar, muammoga doir tadqiqot ishlari, asosiy tushunchalar mazmuni hamda sohaga oid manbalar o‘rganildi. Shu bilan birga mavzu doirasida o‘quv-me’yoriy hujjatlar mazmuni tahlil qilindi. Mazkur muammoning amaliyotdagi holatini aniqlashda xorijiy davlatlar hamda respublikamizda tabiiy fanlarning o‘qitilishini doir tadqiqot ishlari tahlil etildi.

Tadqiqotimizning tajriba sinov ishlari uchun tanlab olingan Andijon, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinflarning o‘quv tayyorgarligi deyarli bir xil bo‘lgan sinflar tajriba va nazorat guruhlari sifatida belgilab olindi. Tajriba guruhlari uchun 100 nafar, nazorot guruhlari uchun esa 97 nafar o‘quvchi-respondentlar tanlab olindi va tadqiqot ishimizning tajriba-

sinov jarayoniga jalb etildi.

2. Shakllantiruvchi tajriba bosqichida tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida 7-sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishning metodik modeliga asosan faoliyat bosqichlari, ijodiy, kreativ faoliyat tajribasi hamda tabiiy ilmiy savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijodiy ish metodlari va usullari aniqlashtirildi. Bunda 7-sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilar faoliyati bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, suhbat, munozara, pedagogik ta’sir etish, savol javob, trening, test kabi metodlar, o‘yin, muammoli va axborot texnologiyalari yordamida ularida ijodiy, kreativ faoliyat tajribasini shakllantirilishiga katta ahamiyat qaratildi (adaptiv ravishdagi RISA va TIMSS topshiriqlari). Tajriba guruhi sifatida tanlab olingan guruhlarida biologiya fani darslari STEAM ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilib, mazkur darslarda interaktiv, o‘yin, muammoli, Art texnologiyalaridan samarali foydalanildi. Har bir mavzuni o‘rganishda biologiya darslarni uchun STEAM ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulot ishlanmalari tayyorlandi.

3. Yakunlovchi tajriba sinov bosqichida biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan tabiiy fanlarni o‘zaro integratsiyasi asosida biologiya o‘qitish jarayonini takomillashtirishning pedagogik modeliga asoslanib tanlab olingan shakl, metod va vositalarni qo‘llagan holda o‘quvchilarda fanlararo tushunchalarni o‘zlashtirish samaradorligi tahlil etildi va statistik tahlil metodlari asosida hisoblash ishlari olib borildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O‘quvchilarining tajriba-sinov boshlanishi va yakunidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Tajriba bosqichlari	Sinflar	O‘quvchilar soni	Baholar				O‘rtacha baho
			5	4	3	2	
Tajriba boshida	Tajriba	100	9	22	48	21	3,2
	Nazorat	97	9	19	46	21	3,2
Tajriba oxirida	Tajriba	100	21	39	37	3	3,8
	Nazorat	93	12	23	46	12	3,4

“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning statistik tahlili” deb nomlangan 3.2-§ qismida tajriba va nazorat sinfidagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini mos ravishda 1- va 2-tanlanmalar deb olamiz va ular asosida mos variatsion qatorlarni tuzamiz (2-3 jadvallarga qarang).

O'quvchilarning tajriba-sinov boshi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

UO'TM	Sinflar	O'quvchilar soni	Baholar				O'rtacha baho
			5	4	3	2	
Andijon viloyati Andijon shahar UO'TM № 49	Tajriba	33	3	7	16	7	3,2
	Nazorat	31	3	6	15	7	3,2
Farg'ona viloyati Farg'ona shahar UO'TM № 9	Tajriba	33	3	7	16	7	3,2
	Nazorat	32	3	7	15	7	3,2
Toshkent viloyati Chinoz tumani 1-IDUM	Tajriba	34	3	8	16	7	3,2
	Nazorat	32	3	6	16	7	3,2
JAMI:	Tajriba	100	9	22	48	21	3,2
	Nazorat	97	9	19	46	21	3,2
JAMI:		197					3,2

O'quvchilarning tajriba-sinov oxiri o'zlashtirish ko'rsatkichlari

UO'TM	Sinflar	O'quvchilar soni	Baholar				O'rtacha baho
			5	4	3	2	
Andijon viloyati Andijon shahar UO'TM № 49	Tajriba	33	7	12	13	1	3,8
	Nazorat	31	4	8	15	4	3,35
Farg'ona viloyati Farg'ona shahar UO'TM № 9	Tajriba	33	7	13	12	1	3,8
	Nazorat	32	4	8	16	4	3,4
Toshkent viloyati Chinoz tumani 1-IDUM	Tajriba	34	7	14	12	1	3,8
	Nazorat	30	4	7	15	4	3,4
JAMI:	Tajriba	100	21	39	37	3	3,8
	Nazorat	93	12	23	46	12	3,4
JAMI:		193					

Tanlangan matematik-statistik usul shartiga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan o'rtacha o'zlashtirish qiymat ko'rsatkichlari $X=Y$ yoki $X<Y$ deb H_0 gipoteza ilgari surilib, ya'ni o'rganilayotgan muammo natijasi samarali emas deb hisoblanadi. Bu esa muammoning samaradorligida H_1 gipoteza $X>Y$ deb olinib, samaradorlik koeffitsiyenti aniqlandi. Yuqoridagi gipotezaga nisbatan $X>Y$ bo'lishi talab etiladi.

O'rtacha qiymatlarning tengligi haqidagi $H_0: a_T = a_H$ farazga muqobil faraz sifatida $H_1: a_T \neq a_H$ faraz olindi.

Ushbu farazni tekshirish uchun Student namunaviy mezonlari, Student mezoniga asoslangan erkinlik darajasi, Pearsonning muvofiqlik mezonlaridan foydalanildi:

$$T = \frac{|\bar{X} - \bar{Y}|}{\sqrt{\frac{D_n^2}{n} + \frac{D_m^2}{m}}} \quad (1)$$

Agar $T > T_{0,95(k)}$ bo'lsa, H_0 faraz rad etilib, H_1 faraz qabul qilinishiga asos bo'ldi. Bu yerda k Student kriteriyasining ozodlik darajasidir. U quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$k = \frac{\left[\frac{D_n^2}{n} + \frac{D_m^2}{m} \right]^2}{\left[\frac{D_n^2}{n} \right]^2 + \left[\frac{D_m^2}{m} \right]^2} \quad (2)$$


Tajriba va nazorat guruhlaridan olingan pedagogik tajriba natijalari yuqorida keltirilgan formulalar asosida statistik qayta ishlandi. Bu statistik tahlil natijalari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Dastlabki natijalarning statistik qiymatlari

Ta'lim muassasalari		Andijon viloyati o'quvchilari	Farg'ona viloyati o'quvchilari	Toshkent viloyati o'quvchilari	JAMI
O'rtacha qiymat	Tajriba guruhi	3,8	3,8	3,8	3,8
	Nazorat guruhi	3,35	3,4	3,4	3,4
Samaradorlik ko'rsatkichi		1,00	1,00	1,00	1,00
Standart xatolik	Tajriba guruhi	0,857	0,857	0,848	
	Nazorat guruhi	0,86	0,87	0,90	
Variatsiya koeffitsiyent		24,5	24,5	24	
		24,6	24,7	25,75	
Statistik qiymat		2,1	1,83	1,85	
Kriteriy xulosasi		T < T _{0,95(k)} bo'lsa, H ₀ faraz rad etilishiga asos yo'q, H ₀ faraz qabul qilinadi			


Ushbu tadqiqotimizda olib borilgan tajribamizning dastlabki natijalarining matematik-statistik qiymatlarining natijalariga ko'ra tajribamizning qiymati kritik qiymatdan kichik ekanligi, tajribamizdagi olingan natijadan ishonch oraliqlarining bir biri bilan kesishganligi tajriba hamda nazorat guruhlarimizdagi tajribadan boshlanishida tinglovchilarning bilimlarining darajalari bir xil bo'lganligini va tajriba sinov ishlarining so'ngidagi natijalar bo'yicha qo'yilgan maqsadimiz to'g'ri tanlanganligidan dalolat beradi (3-rasmga qarang).



3-rasm. O'quvchilarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Olingan natijalarning statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, dastlabki bosqichdagi tinglovchilarning o'zlashtirish darajalari hisobiga ko'ra, $T < T_{0,95}(k)$ bo'lsa, H_0 faraz rad etilishiga asos yo'q, H_0 faraz qabul qilinadi.

Bu esa tanlangan guruhlar tinglovchilarining bilim darajalari tajriba-sinov boshida sezilarli farq qilmagan, shuning uchun tajriba va nazorat guruhlarini to'g'ri tanlangan. Tajribada o'quv loyihalari topshiriqlari bo'yicha olingan natijalarning yakuniy statistik hisob ishlarini keltiramiz (4-rasmga qarang).



4-rasm. O'quvchilarni o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlari

Tajribada o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari hisob kitob natijalari va statistik tahlillar jadvalining qiymatlariga ko'ra, $T > T_{0,95}(k)$ bo'lganligi uchun nolinch gipoteza rad etiladi, birinchi gipoteza qabul qilinadi. Tajribaning yakuniy bosqichida tajriba va nazorat guruhlarining natijalari bir biri bilan taqqoslanganda samaradorlik tajriba guruhlarida **12%** ga yuqori ekanligi va ishonch intervalining

bir-biri bilan ustma-ust (kesishmasli) tushmasligi olib borilgan tadqiqot ishlarining yakuniy bosqichdan olingan natijalarda farq mavjudligi haqidagi H_1 gipotezaning qabul qilinishiga olib keladi. Demak, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini va ko'zlagan maqsadlarning tasdiqlanganini ko'rsatadi.

XULOSA

Tabiiy fanlarni o'zaro integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarda fanlararo bilimlardan amaliyotda samarali foydalana olishga doir zarur kompetensiyalarni shakllantirish hamda tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish hayotiy zaruriyat ekanligi olib borilgan tegishli manbalar tahlili natijasida aniqlandi.

2. Tabiiy fanlar integratsiyasi asosida biologiya fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda birinchi navbatda o'quvchilarning bilim olishga nisbatan qiziqishini, ijodiy, kreativ yondashish ko'nikmasini, mustaqil fikr yuritishlarini, o'z ustida tizimli ishlash kabi sifatlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Biologiya" fanining dars mashg'ulotlari (7-sinf) o'quv dasturiga muvofiq tarzda "Biologiya va turdosh tabiiy fanlar integratsiyasi" integrativ o'quv qo'llanma yaratildi va uning tashkiliy hamda didaktik jihatlari aniqlandi.

4. Ushbu kurs uchun o'quv materiallarini umumiy o'rta ta'limning amaldagi davlat ta'lim standartlari (DTS) ga ko'ra saralash va integrativ qayta ishlashda biologiya o'qitishning amaliyoti va uning nazariy tamoyillari e'tiborga olindi.

5. Tabiiy fanlar o'zaro integratsiyasi asosida biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirish metodikasi ishlab chiqildi va o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarda zarur ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tashkiliy-boshqaruv, tushuntirish-motivatsion, kognitiv, texnologik va kreativ bosqichlari ishlab chiqildi.

6. Integrativ asosga ega bo'lgan STEAM ta'lim texnologiyasini amalga oshirishda interfaol metodlar o'quvchilarda hodisalar mohiyatini to'g'ri baholash va o'z nuqtai nazarini himoya etishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishi asoslandi.

7. Tajribaning yakuniy bosqichida tajriba va nazorat guruhlarining natijalari bir biri bilan taqqoslanganda samaradorlik tajriba guruhlarida **12%** ga yuqori ekanligi tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini va ko'zlagan maqsadlarning tasdiqlanganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tabiiy fanlar mazmunini boshqa fanlar bilan integrativ gorizontaal va vertikal yo'nalishda boyitib borish metodikasini takomillashtirish lozim;

2. Auditoriyadan tashqari mashgʻulotlar jarayonida oʻquvchilarning tabiiy ilmiy savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish zarur.

3. “Biologiya” fanidan yangi avlod darsliklari, variativ darsliklarini yaratishda integrativ yondashuv asosida oʻquv materiallarini tizimlashtirish maqsadga muvofiq.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
№ PhD.03/30.06.2021.B.05.06 ПРИ ФЕРГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НИЗАМОВА БАШОРАТХОН БЕГАЛИЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ БИОЛОГИИ НА
ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК (НА ПРИМЕРЕ 7-х
КЛАССОВ)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (биология)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Фергана – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.4.PhD/Ped6481.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Думанов Бахром Мухтарович
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Шерматов Маликжон Рахматжонович
доктор биологических наук, доцент

Саматов Дилшодбек Тохиржонович
доктор педагогических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится 27 мая 2025 года в 14:00 на заседании разовый научный совет на основе Научного совета PhD.03/30.06.2021.В.05.06 при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; Факс: (+99873) 244-44-93; E-mail: fardu_info@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована под №516). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан 3 мая 2025 года.
(протокол реестра рассылки № 1 от 3 мая 2025 года).



И.И. Зокиров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней д.б.н., профессор

Б.М.Шералиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.б.н., доцент

А.К.Хусанов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В образовательной системе мира на основе мировых требований получателей образования с учётом степени развития науки интеграционного содержания проводятся научные исследования, направленные на обновление, формирование и развитие компетенций, относящихся к естественным наукам. Возникла необходимость разработки модели, направленной на повышение эффективности данных работ, обучения и интегративного содержания естественных наук для учащихся, совершенствования существующих дидактических материалов и рекомендаций.

В Концепции устойчивого развития образования до 2030-года, принятой во всемирном масштабе, подчеркивается, что «Естественные науки имеют практичное, удобное и устойчивое решение, тесно связанное с другими областями для достижения устойчивого развития»¹. При адаптации образования к процессам глобализации и интеграции в образовательном опыте развитых стран уделяется внимание развитию естественно-научного мировоззрения студентов, совершенствованию их интегративного обучения на основе STEAM-подхода. Это имеет большое научное и методическое значение в процессе развития теоретической и практической компетентности учащихся на основе интегративного подхода, принципов межпредметной взаимосвязи учебных материалов при обучении биологии.

Модернизация общего среднего образования в нашей республике, создание нормативной базы формирования теоретических и практических компетенций учащихся в области естественных наук, повышение их естественно-научной грамотности требуют интегративного подхода. Согласно чему появляется потребность проведения научных исследований по совершенствованию интегративного содержания учебных программ, учебников, пособий и методики обучения биологии на основе научно-методического и практического опыта ведущих зарубежных стран. А это требует повторного анализа интегративного содержания существующих Государственных образовательных стандартов, Национальной программы, предметных программ и соответствующих учебников, учебных пособий по биологии и дальнейшего совершенствования на их основе идей интегративного обучения.

Данное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года², № УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля

¹Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

